

ANDIJON VILOYATI MISOLIDA RAHBAR AYOLLARNING IJTIMOYIY-SIYOSIY FAOLIYATI TAHLILI

Maniyazov Qudratbek

Andijon Davlat Pedagogika Insituti. Ijtimoiy va Amaliy Fanlar fakulteti talabasi

Anontatsiya: Andijonda ayol rahbarlar o'rni va prizentimiz tomondan yaratilayotgan qonunlar shu bilan birga ayollarni gender tenglikni ahamiyati va ayol rahbarlarni o'rni har bir sohada yuksak olib borayotgan ish faoliyati ko'rib chiqilgan. Yurtimizda xotin- qizlar uchun huquqiy va manfaatli himoya qilish, zo'ravonlikka qarshi kurashish va qizlarimizi onalikka tayorlash, solomatligini mustahkamlashi. Hozirgi kunda ayol rahbarlar uchun berilayotgan imtiyozlarni ko'rib chiqami.

Аннотация: Была рассмотрена роль женщин-лидеров в Андижане и действующее законодательство, а также важность гендерного равенства для женщин и роль женщин-лидеров во всех сферах. Обсуждались правовая и льготная защита женщин и девочек в нашей стране, борьба с насилием и подготовка девочек к материнству, укрепление их здоровья. Рассмотрим преимущества, которые в настоящее время предоставляются женщинам-лидерам.

Abstract: The role of women leaders in Andijan and the laws being created by our present, as well as the importance of gender equality for women and the role of women leaders in every field, were reviewed. Legal and beneficial protection for women and girls in our country, combating violence and preparing our girls for motherhood, strengthening their health. Let's look at the benefits currently provided to women leaders.

Kalit so'zlar: Ayol rahbarlar, gender tenglik, mikrofirmalar, faollik, davlat granti, kontrakt, byujet, tadbirkor, korhona, ijtimoiy-siyosiy, oila, xotin-qizlar, mahalliy, psixologiya, zoravonlik, konvensiya,

KIRISH

Andijonda ayol rahbarlarning o'rni

Andijon viloyatida ham, mamlakatning boshqa hududlarida bo'lgani kabi, ayollar hokim o'rinbosari, boshqarma boshlig'i kabi muhim davlat lavozimlariga tayinlanmoqda. Xususan, 2024-yil fevral oyida Andijon viloyati hokimining oila va xotin-qizlar masalalari bo'yicha o'rinbosari – boshqarma boshlig'i lavozimiga Gulnora Mahmudovna Ahmedova tayinlangan.

Tadbirkor ayollar viloyat iqtisodiyotida muhim rol o'ynamoqda. 2024-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, Andijon viloyatida aynan ayollar rahbarligidagi kichik korxona va mikrofirmalar soni 1158 tani tashkil etgan. Bu raqam ayollarning biznes sohasidagi faolligidan dalolat beradi.[1]

Siyosiy va ijtimoiy faollik: Ayollar, shuningdek, mahalliy kengashlar deputatlari, nodavlat notijorat tashkilotlari rahbarlari va ta'lim muassasalari direktorlari kabi ijtimoiy va siyosiy sohalarda ham faol ishtirok etishmoqda.

Bugun yurtimizda xotin-qizlarning mavqeini yuksaltirish, ularning jamiyatdagi faolligini ta’minlash maqsadida ularning ta’limiga katta e’tibor qaratilmoqda. Sababi davlat va jamiyat taraqqiyoti ilm-ma’rifatli fuqarolarga bog’liq. Ma’rifatli jamiyatni esa millat onalari tarbiyalaydi. Ta’lim sohasini rivojlantirish yo’lida, jumladan, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 7-martdagi PF-87-sonli farmoniga ko’ra, xotin-qizlarning magistraturada o’qishi to’liq davlat granti hisobiga amalga oshirilishi yo’lga qo’yildi. Farmonga muvofiq, har yili davlat oliy ta’lim muassasalarining magistratura bosqichida o’qiyotgan barcha xotin-qizlarning kontrakt to’lovlarini qaytarish shartisiz qoplash maqsadida, davlat budjetidan har yili kamida 200 milliard som moliyalash tizimi yo’lga qo’yildi.

Xotin-qizlar ta’limini qo’llab quvvatlash maqsadida 2023/2024-o’quv yilidan ta’lim kontraktlarini to’lash uchun qizlarga ilk marotaba 7yil muddatga foizsiz kredit berish joriy qilindi. Buning uchun, 2022-yilda banklarga 1 trillion 800 milliard so’m 2023 va kelgusi to’rt yilda 8 trillion so’m mablag’ ajratilishi belgilangan. Shuningdek, magistraturada o’qiyotgan qizlarning kontrakt pullari toliq byudjetdan qoplab berilishi, ehtiyojmand oila vakillari, otasi yoki onasini yo’qotgan talaba qizlarning ta’lim kontrakti mahalliy byudjetdan to’lanishi yo’lga qo’yildi. Jamiyatimizda olima ayollar ulushini sezilarli oshirish uchun doktorantura yo’nalishida xotin-qizlar uchun har yili kamida 300 tadan maqsadli kvota ajratilmoqda. [2]

So’nggi yillarda O’zbekistonda gender tenglikni ta’minlash, ayollarning boshqaruvdagi ulushini oshirish davlat siyosatining ustuvor yo’nalishlaridan biri bo’lib bormoqda. Xususan, Andijon viloyatida ham turli sohalarida faoliyat yuritayotgan rahbar ayollar soni sezilarli darajada ortib, ular ijtimoiy-siyosiy hayotda faol ishtirok etmoqda.

Siyosiy jarayonlarda ishtiroki -Xalq deputatlari kengashlariga ayollar deputat sifatida saylanmoqda va mahalliy boshqaruv organlarida ayollarning ulushi ortmoqda (hokim o’rinbosarlari, departament rahbarlari)

Jamoatchilik faoliyati – Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi orqali ayollarning muammolarini hal qilishda jonbozlik.

Tadbirkorlikdagi faollik - kichik bizneslarning muhim qismini ayollar boshqaradi. Ular: Hunarmandchilik, Savdo-xizmat, Qishloq xo‘jaligi qayta ishlash, Ta’lim xizmatlari sohalarida yetakchilik qilmoqda.

Prezident Sh.M. Mirziyoyev iborasi bilan aytganda: “Bugun har bir ayol oddiy kuzatuvchi emas, balki mamlakatda amalga oshirilayotgan demokratik o‘zgarishlarning faol va tashabbuskor ishtirokchisi ham bo‘lishi kerak”

Ayollar sog‘lom, farzandlari barkamol bo’lgan yurtning kelajagi porloq bo’ladi. Bu borada o‘zbek ayollariga, aziz va muhtaram onalarimiz, opa-singillarimizga havas qilsek arziydi. Bugun yurtimizda o‘z o‘rnini topayotgan ayollar safi kengayib bormoqda. Ayolning haqiqatda jamiyatda o‘z o‘rnini topishi uning hayotdan ma’no va quvonch topib yashayotganidan dalolatdir. Mamlakatimizda xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, salomatligini mustahkamlash, ularga munosib shartsharoit yaratish borasida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli ishlar samaralarini bugun har tomonlama sog‘lom va yetuk farzandlarimiz qiyofasida hayotning o‘zi ko‘rsatmoqda.

Zero, ayollar salomatligi – oila salomatligi, jamiyat mustahkamligi, yurt barqarorligidir.

Mamlakatimizda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ularning turli soha va tarmoqlarda o‘z qobiliyat va imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishi uchun shart-sharoit yaratish, huquq va qonuniy manfaatlariga so‘zsiz rioya qilinishini ta‘minlash, onalik va bolalikni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash hamda oila institutini mustahkamlash borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Vaholanki, ayollarning huquqlari buzilganda, inson huquqlari buzildi, deb ko‘rib chiqilmagan taqdirda, Ayollarning inson zotiga mansubligi inkor qilingan bo‘lar edi. Umuman olganda, ayollar huquqlari degan tushuncha ayollarga nisbatan zo‘ravonlik, Ayollarning aynan ayol bo‘lganligi bois ham ba‘zi huquqlarda kamsitilayotganligi uchun inson huquqlarining alohida huquqlari sifatida shakllanishiga olib keldi. Qonunning qabul qilinishi, ayniqsa, xotin-qizlarni ta‘qib va zo‘ravonlikdan himoya qilish borasida muhim ahamiyat kasb etdi. Bu qonun uzoq yillik muhokamalardan so‘ng qabul qilindi. Qonun oiladagi zo‘ravonlik qurbonlariga yordam ko‘rsatish, ularni boshpana, ishonch telefonlari bilan ta‘minlash hamda nafaqat jismoniy zo‘ravonlik, balki psixologik yoki iqtisodiy jinoyatlar uchun ham majburiy javobgarlikka tortish orqali ayollarni himoya qilishning asosidir. Bunday chora-tadbirlar, xususan, uzoq vaqtdan beri BMTning inson huquqlari tashkilotlari tomonidan tavsiya etilgan. Shu bilan birga, bu yo‘nalishda uzoq muddatli izchil ishlarni amalga oshirish talab etiladi. Bunda nafaqat qabul qilingan ko‘rsatmalar, balki ularning xalqaro majburiyat va standartlarga muvofiqligi, joylarda o‘z vaqtida va to‘g‘ri bajarilishi muhim ahamiyatga ega. Shu ma‘noda xotin-qizlarning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotdagi qarorlarni qabul qilishning barcha bosqichlarida to‘liq va samarali ishtirokini ta‘minlash borasidagi ishlar izchil davom ettirilmoqda. Binobarin, “Ayollar va erkaklarning teng huquq va imkoniyatlari kafolatlari to‘g‘risida”gi hamda “Ayollarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi qonunlar ijrosini ta‘minlashga qaratilgan “yo‘l xaritalari”ni qabul qilish ko‘zda tutilgan. Shuningdek, Gender tengligi milliy strategiyasini qabul qilish rejasi ham mavjud. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Agentliklari gender tengligi va kamsitilmaslik masalalarida, jumladan, maxsus hujjatlarni rejalashtirish, ishlab chiqish va amalga oshirish, yangi kodekslarning Maxsus qoidalarini – jinoyat-protsessual va ijroiya qonunlarini ishlab chiqishda yordam ko‘rsatishni davom ettirishga tayyor.

Xotin-qizlarning huquqlari va imkoniyatlarini kengaytirish va farovonligini oshirishda hal qiluvchi omil sifatida talim olish, kasb-hunar o‘rganish va o‘z qobiliyatlarini rivojlantirish borasidagi imkoniyatini ko‘rib chiqar ekanmiz, respublikada talim olish huquqi barcha fuqarolar uchun jinsidan qafiy nazar O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi bilan kafolatlanganligiga (41 modda) guvoh bolamiz. Ayollar va erkaklarning talim olishga doir teng huquqlari O‘zbekiston Respublikasining «Talim to‘g‘risida»gi Qonuni, jismoniy rivojlanish va sport bilan shug‘ullanish borasida esa - «Jismoniy tarbiya va sport haqida»gi qonuni (2-modda) bilan belgilangan. Xotin-qizlarning qarorlar qabul qilish darajasidagi ishtirokini yanada kengaytirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 1995 yil 2 martdagi «O‘zbekiston Respublikasining davlat va ijtimoiy qurilishida xotin-qizlarning rolini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» hamda 2004 yil 25 maydagi «O‘zbekiston Xotin-qizlar qo‘mitasi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida» Farmonlari hamda Vazirlar Mahkamasining mazkur masalalar yuzasidan qarori qabul qilingan. Ayollar va erkaklarning teng huquqliligi mamlakatimizning asosiy qonuni – O‘zbekiston Respublikasi

Konstitutsiyasida mustahkamlangan, uning (46-moddasida) qayd etilganidek, “Xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidirlar”. [3]

1995- yil 16- noyabrda “O‘zbekiston Respublikasida xotin-qizlar masalalari bo‘yicha konsepsiya” ishlab chiqilgan edi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi har bir odam uchun Inson huquqlari haqidagi Xalqaro Konvensiyadagi shaxsiy, ijtimoiy, siyosiy, madaniy va iqtisodiy huquqlarining butun majmuini kafolatlaydi. Asosiy qonunimizda har bir insonga huquq va erkinliklari daxlsizligi, ularni cheklab qo‘yishga hech kim haqli emasligi mustahkamlangan. O‘zbekisto Respublikasi mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq demokratik tamoyillarni qo‘llab-quvvatlab, inson huquqlarini taminlashga doir qariyb 70 ta asosiy xalqaro hujjatlarga qo‘shildi. Bular – Umumjahon inson huquqlari Deklaratsiyasi, «Xotin-qizlarga nisbatan zo‘ravonlikning barcha shakllariga barham berish to‘g‘risida»gi Konvensiya, Ming yillik rivojlanish maqsadlari va boshqalar. Birlashgan Millatlar Tashkiloti ham ayollar huquq van erkinliklarini himoya qilish maqsadida bir qator xalqaro qonunlar qabul qilgan. Bugungi kunga kelib Respublikamizda xotin-qizlarning qariyb 80 % asosan ikki ijtimoiy soha – ta’lim van sog‘liqni saqlashda faoliyat yuritib kelmoqda. Ammo hozirda ayollarning siyosat, diplomat van vazir kabi davlat boshqaruvida ahamiyatga ega bo‘lgan lavozimlarda ularning sonini ko‘zda tutilmoqda.

Ayollarning gender va reproduktiv huquqlarining milliy va xalqaro jihatlarini G.Matkarimovanning dissertatsiyasida kompleks o‘rganilgan.

Ayollarning ijtimoiy-siyosiy faol bo‘lishi, ularning davlat va jamiyat boshqaruvida bevosita va faol ishtirok etishi, turli sohalarda o‘z salohiyatlarini ro‘yobga chiqarishi, teng huquq hamda imkoniyatlardan to‘siqlarsiz foydalana olishi maqsadiga mos keladi. Mamlakatimizda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ularning turli soha va tarmoqlarda o‘z qobilyat va imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishi uchun shart-sharoit yaratish, huquq va qonuniy manfaatlariga so‘zsiz rioya qilinishini ta‘minlash, onalik va bolalikni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash hamda oila institutini mustahkamlash borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Vaholanki, ayollarning huquqlari buzilganda, inson huquqlari buzildi, deb ko‘rib chiqilmagan taqdirda, Ayollarning inson zotiga mansubligi inkor qilingan bo‘lar edi. Umuman olganda, ayollar huquqlari degan tushuncha ayollarga nisbatan zo‘ravonlik, Ayollarning aynan ayol bo‘lganligi bois ham ba’zi huquqlarda kamsitilayotganligi uchun inson huquqlarining alohida huquqlari sifatida shakllanishiga olib keldi. Qayd etish kerak, mamlakatimizda ayollarning ijtimoiy-siyosiy faolligini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha bir qator yo‘nalishlarda ishlar boshlangan. Misol uchun, har yili muayyan talaba xotin-qizlarning ta’lim kontraktlari davlat hisobidan qoplab berilyapti, ehtiyojmand oilalar farzandi bo‘lgan qizlar uchun davlat grantlari soni 2 barobarga oshirildi, uy-joyga muhtoj ayollarga ipoteka kreditining 15 foizi miqdorida boshlang‘ich to‘lov to‘lab berilyapti, «Ayollar daftari» ro‘yxatiga kiritilgan xotin-qizlar o‘z ishini boshlashi uchun subsidiya ham ajratilyapti.[4]

Yurtimizda yaratib berilgan bundan qulay shart-sharoitlardan to‘g‘ri foydalanmay ilojimiz yo‘q. Muhtaram Prezidentimiz aytganidek: “Ayollar ishlagan, rahbarlik qilgan joylarda tartib, adolat, halollik, madaniyat yuqori bo‘lishi hech kimga sir emas. Shu bois har bir vazirlik, davlat kompaniyasi, bank va boshqa idoralarda bir-ikki yil ichida o‘z tizimidagi ayollarni rahbarlikka o‘qitib, kamida 1 nafar o‘rinbosarini ham ayollardan qo‘yadi”. Bu,

albatta, ayollarga bo‘lgan yuksak e‘tiborning yana bir yorqin ko‘rinishi. Keyingi yillarda mamlakatimizda xotin-qizlarning huquq-manfaatlarini, gender tenglikni ta‘minlash, oila, onalik va bolalikni himoya qilish, ayollar o‘rtasida tadbirkorlikni rivojlantirish, ular uchun yangi ish o‘rinlari yaratish, mehnat hamda turmush sharoitlarini yaxshilash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylanadi. Xulq-atvor ustunligi ayol liderlar nomutanosib ravishda zamonaviy bilimlar iqtisodiyotida yuqori samarali rahbarlik uslublarini qabul qiladilar. Xususan, tadqiqotlar shuni tasdiqlaydiki, ayollar Transformatsion Liderlikni (TFL) namoyish etish ehtimoli ko‘proq, bu uslub ideallashtirilgan ta’sir, ilhomlantiruvchi motivatsiya va individual e’tibor bilan ajralib turadi. Ushbu yondashuv xodimlarning yuqori faolligini oshiradi, konstruktiv qiyinchiliklarni rag‘batlantiradi va iste’dodlarni saqlab qolishni kuchaytiradi, rahbarlarni yuqori samarali, maqsadga yo‘naltirilgan madaniyatlar me’morlariga aylantiradi. Yuqori darajadagi hamdardlik va murosaga kelish qobiliyati kabi o‘ziga xos munosabatlar ko‘nikmalari ayol rahbarlarni murakkablikni boshqarish va ichki va tashqi konsensusga erishish uchun yanada jihozlaydi.

Keyingi yillarda gender tengligini ta‘minlash, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy hayotdagi rolini oshirish bo‘yicha ishlar bir necha yo‘nalishlarda amalga oshirilmoqda :

Ayollar huquqlariga oid qonunchilikni takomillashtirish;

Ayollarni himoya qilish bo‘yicha institutsional bazani takomillashtirish ;

Aholining gender tengligi va ayollar huquqlari haqida xabardorligini oshirish ;

Rahbar quyidagi 7 ta funksiyani bajaradi:

Jamoadagi personni boshqarish;

Moddiy-texnik ba’zani boshqarish;

Ichki va tashqi axborotlarni boshqarish;

Mablag‘ni boshqarish;

Muhitni boshqarish;

Shaxslarni boshqarish;

Munosabatlarni boshqarish. [5]

Andijon viloyati ayollarning yuqori darajadagi siyosiy faolligi uchun tarixiy pretsedentlarga ega. Davlat, diplomat va jamoat arbobi Zuhra Rahimboboeva (1923–1992) Andijonda tug‘ilgan, O‘zbekiston Kompartiyasi Markaziy Qo‘mitasi bo‘lim boshlig‘i, Madaniyat vazirining birinchi o‘rinbosari, SSSRning Hindistondagi Favqulodda va Muxtor elchisi kabi ko‘plab nufuzli vazifalarni bajargan. Uning yuqori siyosiy va diplomatik yutuqlari bilan ajralib turadigan karerasi hozirgi institutga tarixiy qarama-qarshilikni keltirib chiqaradi. Bu cheklovlar mintaqaning madaniy tuzilmasida uzoq vaqtdan beri ayollarning etakchilik salohiyati mavjudligini ko‘rsatadi.

FOYDALANILGA ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi ma’lumotlari:
2. Prezident Shavkat Mirziyoyev ishtirokida ayollarning jamiyatdagi o‘rnini mustahkamlash yuzasidan videoselekt yig‘ilishidagi davlat rahbari nutqidan. Avlod.media.uz

3. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi “Adolat” huquqiy axborot milliy markazi davlat muassasasi.

4. 2020 “Yangi O‘zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati. Бaxop Хидирова

5. Malikaxon Qaxramon, Xolmo‘minov Zokir
O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institute